

## **XIX ASR QORAQALPOQ SHOIRLAR IJODIDA DIDAKTIK QARASHLAR**

*Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrası dotsenti*

*(Phd) Toqimbetova Gulbaxar Abatbaevna*

[gulbaxartokimbetova@gmail.com](mailto:gulbaxartokimbetova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr qoraqalpoq lirikasining davrdagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sharoitlar, adabiy muhit bilan aloqadar ravishda o'rganilib, bu davr lirikasidagi o'rta asrlik adabiyotga mos diniy mazmun, didaktika, timsoliy, ramziy obrazlar yaratish, gumanistik, demokratik g'oyalarning tasvirlanishi singari belgilari aniqlanib keltirilgan. Qoraqalpoq adabiyoti tarixining muhim bosqichi hisoblangan XIX asr boshida yaratilgan lirik merosning g'oyaviy-badiiy va janriy xususiyatini tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy asos, real ifoda, qadriyaviy munosabat, ijodiy mahorat, sharq adabiy an'nalari, kompozisiya, obraz yaratish usuli.

**Abstract:** In this article, 19<sup>th</sup> century Karakalpak lyrics are studied in relation to the historical, socio-political, economic and cultural conditions of the period, as well as the literary environment identified. The ideological-artistic and genre characteristics of the lyrical heritage created at the beginning of the 19<sup>th</sup> century, which is considered an important stage in the history of Karakalpak literature, have been researched.

**Key words:** artistic basis, realistic expression, value attitude, creative skill, eastern literary traditions, composition, image creation method.

XIX asr qoraqalpoq she'riyatida didaktik g'oyalar ifodalanishida xalq tafakkuri, falsafasi muhim o'rin tutadi. Zero, Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh kabi shoirlar didaktik g'oyalari, shunchaki ilohomdan yaralgan sub'ektiv xayollardan iborat emas, ular hayotiy, badiiy asoslariga ega. Qoraqalpoq shoirlarining didaktik g'oyalari birinchi

navbatda, o'zlari yashayotgan davr va muhit, jamiyat tartiblari, hayotiy mezonlar asosida vujudga kelgan.

Bu borada Berdaqning "Kim aytar", Ajiniyozning "Nasihati" sho' e'rlaridagi didaktik g'oyalari, badiiy xulosalar mavzur davr ijtimoiy vaziyatidan darak edi. Zero, shoirlarning didaktik g'oyalari xalq istagi bilan hamohang edi. Shuning uchun ham qoraqalpoq shoirlari ijodida davrga munosabat masalasi kuchaydi. Mazkur "qadriyaviy munosabatlar mazmun jihatdan ob'ektiv, shakliy jihatdan sub'ektiv xarakter kasb etgan holda inson shaxsi tafakkuriga ezgulik, go'zallik g'oyalarini sifatida ifodalandi. Bu esa hayotiy tajribalar ta'sirida shakllanib, insonlarni o'zaro ma'naviy jipslashtirishga olib keldi" [Niyazimbetov, 2008: 85].

Berdaq qalamiga mansub "Nodon bo'lma" deb nomlangan didaktik she'rida ushbu g'oyaning real ifodasini ko'rish mumkin. Unda qadriyaviy munosabatlar ma'naviy mezon sifatida inson shaxsining jamiyatdagi burchi, mas'uliyati ekanligi e'tirof etiladi.

Dunyoning holini so'ramay,  
Azamatlikka yaramay,  
Oldi-ortingga qaramay,  
Fahmi yo'q sen nodon bo'lma!  
Sening tenging emas amal,  
Tushib olgin hovringdan sal,  
Dalaga chiq, ketmonga gal,  
Nodonlarday nodon bo'lma! [Berdaq, 1978: 75]

Qadriyaviy xulq-atvor inson shaxsining unga munosabati va ma'naviy tafakkuri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi. Mazkur ma'naviy komponent Berdaqning inson to'g'risidagi qarashlari butun bir tizimga solingan. Ta'kidlash lozimki, bu tamoyil insonning jamiyat bilan munosabati mayyan talab va mezoni sifatida qaraladi. Ushbu fikrlarimiz amaliy tasdiqini "Xalq uchun" she'rida ko'rish mumkin.

Etarsan murodga, gar xizmat etsang,  
Eling yo'llaganda har qayon ketsang,

Har qachon dushmaning boshiga etsang,

Olqish olib xizmat ayla xalq uchun.

Berdaq vatanparvarlik tuygʻusini yuksak insoniy fazilat sifatida baholaydi. Vatanga sodiq xizmat, xalq kelajiki uchun kurash, oʻz manfaatini xalq manfaati bilan uygʻunlashtirish har bir inson burchi ekanligi uqtiriladi. Berdaq oʻz didiktik she'riyatida insonlarni poklik, halol mehnatga da'vat etadi. Uning fikricha, halol mehnat bilan topilgan “Bir zogʻora – nonu boldan yaxshi”.

Shunday gʻoyalar badiiy talqini Ajiniyoz didaktik she'rlarida ham kuzatiladi. Shoir gʻoyalariga koʻra, inson bolalik chogʻidanoq ilm-zakovatga intilsa, kelajakda etuk inson boʻlib shakllanadi. Aksincha, “Nopok boʻlsa, gar farzanding – umring zimistonga oʻxshar”, – deya farzand tarbiyasida ota-onalar mas'uliyatini alohida urgʻulaydi. Shoirning “Yaxshi” deb nomlangan she'rida “Yoʻl bilmasang, yoʻl soʻrangiz bilgandan”, – deya hayotiy tajribaga ega insonlar fikrlari bilan oʻrtoqlashishga chaqiradi. Mazkur she'riy da'vatlarda insonni ma'naviy ruhlantirib, zulm-zoʻravonlikka qarshi kurashga chaqiriladi.

Toʻgʻri yoʻlni tashlab egri yurgandan,

Doʻst boʻlib doʻst soʻzidan yuz burgandan,

Doʻstga qop-qop lofu yolgʻon urgandan,

Oʻn besh yashar ayolni sen bil yaxshi.

Ta'kidlash kerakki, Berdaq she'riyati oʻziga xos poetik xususiyatlarga ega. Shoir she'riyati xalqona ohang bilan bir qatorda Sharq adabiyotini boy azaliy an'analari bilan ziynatlanadi. Shuning uchun ham shoir lirikasining tarkib topishi xalq ijodiyotiga yaqinligi, mavzuviy yoʻnalishlari, obrazlari yaratilishi bilan oʻziga xoslik kasb etadi. Berdaq ijodining katta qismini doston janri egallaydi. Yozma adabiyotda doston yaratish masalasiga birinchilardan boʻlib qoʻl urgan shoir ijodida folklor yozma adabiyot an'analari oʻzaro sintezini kuzatish mumkin. Mazkur muammolarni tadqiq etish, misollar bilan asoslash, faqatgina Berdaq ijodiy mahoratini yoritishgina boʻlmay, balki adabiyotshunoslikdagi ilmiy-nazariy muammolar echimida ham katta ahamiyatga ega.

Demak, Berdaq she'riyatida g'oyaviy, badiiy-etetik manbalar manbalarini tadqiq etish adabiyotshunoslikning dolzab masalalaridandir. Bu borada, H.Hamidov, K.Qurambaev, B.Qurbanbaev, K.Mambetov, A.Murtazaev, A.Pirnazarov, A.Paxratdinov kabi adabiyotshunoslar o'z ilmiy izlanishlarida Berdaq she'riyatida Sharq adabiy an'nalari va xalq og'zaki ijodi namunalarining qo'llanilishi haqida atroflicha munosabatlar bildirgan. Zero, folklor xalq urf-odat va dasturlari, etnografiyasi bilan uzviy aloqada bo'ladi. Shu ma'noda, qoraqalpoq folklori xalq tarixi va umumiy taraqqiyotini o'zida aks ettiradi. Кузатиладики, Ажиниёз ва Бердақ яратган лирик, эпик асарларда фольклор анъаналари, мифологик тасвир, афсонасимон, ривоятмуз, ёки эртакнамо сюжетлар, шунингдек, Шарқ адабиётига хос анъавий бошламалар, композиция, образ яратиш усулларида асар ғоясини очишда ўринли фойдаланилади.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ниязымбетов М. Бердақтың дүньяға көзқарасында адамды социаллық ориентациялаў мәселеси // Бердақ дүньясы: Илимий-публицистикалық мақалалар. – Нөкис: Әмиўдәрья китапханасы, 2008. – Б. 85.
2. Бердақ. Сайланма: Шеърлар ва дoston. – Тошкент, 1978. – Б. 75.
3. Ажиниёз. Танланган асарлар. – Тошкент, 1962. – Б. 20.